



O'UK:378.3(916) (575.1)

Fazilat NURMETOVA

Andijon davlat universiteti erkin tadqiqotchisi, O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti o'qituvchisi
E-mail:fnurmetova@list.ru

PhD A.Achilov taqrizi asosida

O'ZBEKISTON - JANUBIY KOREYANING TA'LIM SOHASIDAGI HAMKORLIGI

Аннотация

Ushbu maqolada O'zbekistonning Janubiy Koreya Respublikasi bilan fan-ta'lim sohasidagi o'zaro hamkorligi tarixini tadqiq etishga qaratilgan. O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasidagi ta'lim, xususan oliy ta'lim aloqalarining rivojlanish tendensiyalari ilmiy, statistika asosida tahlil qilingan. Koreya Respublikasi dunyoda ilm-fan rivojlangan davlatlar qatorida o'rin olgan mamlakatlardan sanaladi. Shu boisdan, mazkur davlat bilan O'zbekiston Respublikasining fan va ta'lim sohalarida olib borayotgan hamkorlik aloqalari samarali natija bermoqda.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Janubiy Koreya, ta'lim, Koreyashunoslik, KOICA, YOJU, Puchon, Inxa, Sejong, maktabgacha ta'lim.

СОТРУДНИЧЕСТВО УЗБЕКИСТАНА И ЮЖНОЙ КореИ В ОБЛАСТИ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация

Данная статья посвящена на изучение истории научно-образовательного взаимодействия Узбекистана с Республикой Южная Корея. Тенденции развития образовательных связей между Узбекистаном и Республикой Корея, в частности высшего образования, проанализированы на основе научных, статистических данных. Республика Корея входит в число стран мира, где наука занимает одно из первых мест среди развитых стран. В связи с этим сотрудничество, которое Республика Узбекистан ведет с этим государством в области науки и образования, даст эффективные результаты.

Ключевые слова: Узбекистан, Южная Корея, образование, Корееведение, KOICA, Ёджу, Пучон, Инха, Седжон, дошкольное образование.

COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND SOUTH KOREA IN THE FIELD OF EDUCATION

Annotation

This article is aimed at studying the history of scientific and educational cooperation between Uzbekistan and the Republic of South Korea. The trends in the development of educational ties between Uzbekistan and the Republic of Korea, in particular higher education, are analyzed on the basis of scientific and statistical data. The Republic of Korea is one of the countries in the world where science occupies one of the first places among developed countries. In this regard, the cooperation that the Republic of Uzbekistan conducts with this state in the field of science and education will yield effective results.

Key words: Uzbekistan, South Korea, education, Korean studies, KOICA, Yoju, Puchon, Inha, Sejong, project, preschool education.

Kirish. O'zbekiston va Koreya Respublikalari o'rtasidagi o'zaro munosabatlar uzoq tarixga borib taqaladi. Janubiy Koreya O'zbekiston suverenitetini e'lon qilganda birinchilardan bo'lib davlat mustaqilligini tan olgan va diplomatik aloqalar o'rnatilgan hamda bugungi kunda izchillik bilan rivojlanmoqda. Ikki davlat o'rtasida siyosiy, iqtisodiy sohalar bilan bir qatorda ta'lim sohasida ham hamkorlik aloqalari o'rnatilgan.

Metodologiya. Maqolada tarixiylik, qiyosiy-tahlil metodlaridan foydalanib, O'zbekiston va Koreya Respublikalari o'rtasidagi ta'lim masalalarida hamkorlik tarixi yoritildi.

Asosiy qism. O'zbekiston va Janubiy Koreya Respublikasi madaniy diplomatiya doirasida amalga oshirilgan dastlabki amaliy harakati Toshkentda 1992-yildan boshlab Koreya ta'lim markazining ochilishi bo'ldi. Koreya elchixonasi qoshida ochilgan mazkur markaz 30 yil davomida mamlakatimiz hududida faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Markazning vazifalariga etnik koreys millatiga milliy urf-odat, an'alarini saqlab qolishga ko'maklashish bilan bir qatorda koreys tili kurslari ham tashkil etilgan. Xususan, markaz ko'magida "Incheon ta'lim festivali", "Tabiiy fanlar festivali", koreys tili bo'yicha Respublika olimpiadalari o'tkazilib kelmoqda.

2024-yil 22-noyabrda Koreya Respublikasi elchixonasi qoshidagi Koreya ta'lim markazi direktori Leye Young Woong Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligiga tashrif chog'ida O'zbekiston va Koreya Respublikasi o'rtasida barcha ta'lim yo'nalishida ham hamkorlik aloqalari sarhisob qilinib, ta'lim jarayoniga STEM va koreys tili fanidan xalqaro toifadagi o'qituvchilarni jalb qilish, xalqaro olimpiadalarga o'quvchilarni tayyorlash, akademik tajriba va milliy-madaniy ma'lumotlar almashishni ko'zda tutuvchi seminar-treninglarni tizimli tashkil etish kabi masalalar yuzasidan shartnomalar imzolandi[4]. Bu

ikki davlat o'rtasidagi ta'lim sohasida qo'shma loyihalarning birinchi yirik yutug'i hamda keyingi davomiylikda asos bo'lib xizmat qildi.

Hozirgi kunda O'zbekistonning 7 ta oliy ta'lim muassasasi hamda 48 ta maktab va litseylarida, shuningdek, Sejong maktabida koreys tili o'rgatilmoqda. O'zbekistonda Koreyaning Inxa, Puchon, Yoju universitetlari filiallari hamda Farg'onada Koreya xalqaro universiteti faoliyat yuritib kelmoqda. 2021-yil 1-fevralda Toshkentda Aju universitetining filiali ochildi[5]. Uzoq yillik ta'lim hamkorligi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida koreys tilining o'qitilishi bilan boshlangan edi[6].

O'zbekiston-Koreya ta'lim hamkorligi asosida 1992-yili mart oyida Toshkent davlat sharqshunoslik institutida dastlab Koreys filologiyasi kafedrasini asos solindi, keyin esa Koreyashunoslik fakultetiga aylantirildi. Fakulitetda Koreya tarixi, tili, adabiyoti, iqtisodi, madaniyati, siyosati to'g'risida o'zbekistonlik talabalarga bilim beriladi [7]. Fakultet va Janubiy Koreyaning nufuzli oliy o'quv yurtlari bilan tuzilgan shartnomalar asosida ta'lim sohasida tajriba almashish, ilg'or ta'lim tizimlarini amaliyotga tatbiq etish, o'qitish usullarini zamon talabiga mos ravishda yaratish borasida hamkorlik sathi kengaymoqda.

Shuni alohida ta'kidlash muhimki, mustaqil ravishda birinchilardan bo'lib 2014-yilda Toshkentda INHA universiteti ochilishi mamlakatimizning Janubiy Koreya bilan ta'lim sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi [11]. Bu xalqaro miqyosda yuqori malakali IT-mutaxassislarini tayyorlaydigan birinchi xorijiy ta'lim muassasasiga aylandi. Bugungi kunda universitetda axborot texnologiyalari, muhandislik va logistika yo'nalishlari bo'yicha mingdan ortiq talabalar tahsil olmoqda [8].

Oliy ta'lim sohasidagi hamkorlikning yangi bosqichi 2018-yil O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Maktabgacha ta'lim vazirligi hamda Janubiy Koreyaning Puchon universiteti bilan tuzilgan uch tomonlama shartnomaning imzolanishi bilan boshlandi. Mazkur shartnoma hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus farmoni asosida Toshkent shahrida Puchon universiteti ochiladi. Universitet maktabgacha ta'lim, san'at, ijtimoiy fanlar, biznes va menejment, arxitektura singari 26 yo'nalishda talabalarga tahsil berib kelmoqda[9].

2018-yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Toshkent shahrida Adju Universitetini tashkil etish to'g'risida"gi qarori asosida 2020-yilda Toshkent shahrida Janubiy Koreya Respublikasi bilan hamkorlikda Adju Universiteti tashkil etildi[9].

O'z navbatida Janubiy Koreya Respublikasida ham o'zbek tilini o'qitish bo'yicha hamkorlik yo'lga qo'yilgan. Yonin shahridagi Xankuk xalqaro xorijiy tillar universitetida o'zbek tili bo'limi faoliyat yuritib kelmoqda. Qolaversa, Janubiy Koreyaning Kvadju shahridagi Xonam universitetida o'zbek tilini o'qitish qisqa muddatli kurslari tashkil etilgan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Janubiy Koreya oliy o'quv yurtlarida 200 mingdan ortiq xorijiy talabalar tahsil olishadi. Ulardan 2300 nafari aynan, o'zbekistonlik talabalardir[11].

Shu bilan birga ikki do'st mamlakat o'rtasida talaba almashinuvi dasturlari amal qilib kelmoqda. Agar 2001-2002-yillarda 20 nafar koreyalik talabalar Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida, O'zbekiston Milliy universitetida ta'lim olib, tajriba almashilgan bo'lsa, bu raqamlar hozirda 100 da ortiqni tashkil qiladi.

2023-yil Toshkentda ikki davlat oliy o'quv yurtlari rektorlari Forumi o'tkazildi. Unda ikki tomonlama ta'lim loyihalarini kengaytirish, qo'shma ta'lim dasturlarini ko'paytirish masalalari ko'rib chiqildi. Shuningdek, yoshlarni kasbga o'qitish, o'zbekistonlik talabalarni Koreya universitetlarida ta'lim olishi, O'zbekistonda Koreya universitetlari filiallari faoliyatiga oid bir qator masalalar muhokama qilindi. Bugungi kunda mamlakatimizning 14 ta ta'lim maskanida Janubiy Koreyaning KOICA tashkiloti ko'ngillilari yordamida koreys tili o'qitilayotgani, shuningdek, hozirda Koreya oliy ta'lim muassasalarida 8 mingdan ziyod o'zbekistonlik yoshlar tahsil olayotgani e'tirof etildi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Janubiy Koreyaning Andong universiteti, Gangneung-Wonju Milliy universiteti, Kyungdong universiteti bilan 2+2 dasturi yo'lga qo'yildi. Toshkent davlat transport universiteti Janubiy Koreyaning 9 ta ta'lim muassasasi Kyungil, Keimyung, Daegu, Jeju turizm universiteti, Kumoh texnologiya universiteti, Andong Milliy universiteti bilan shartnomalar imzoladi.

2024-yilda O'zbekiston ta'lim, fan va innovatsiya vaziri Q.Sharipov Koreya Respublikasi Milliy assambleyasi kongressmeni Kvon Yonji boshchiligidagi delegatsiyasini qabul qildi va o'zaro kelishivlar asosida "Oliy ta'lim transformatsiya, samarali boshqaruv va sifatli ta'limni ta'minlash" va "Iqtisodiy transformatsiyada kasb-hunar ta'limi" hamkorlik memorandumlari ishlab chiqildi.

Xulosa. Hozirgi davrda mamlakatimizda jahon ta'lim makoniga kirib borishga mo'ljallangan yangi ta'lim tizimining shakllanish jarayoni kechmoqda. Shu bilan bir qatorda bugungi kunda Koreyaning qator nufuzli oliygo'hllari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari bilan hamkorlik qilib kelmoqda. Shunday imkoniyatlardan foydalanish ikki davlat manfaatlariga birdek xizmat qilishi shubxasiz.

Yuqoridagi tahlillardan quyidagilarni xulosa qilishimiz mumkin:

Birinchidan, ikki mamlakatlar o'rtasidagi tarixiy aloqalar uzoq o'tmishga borib taqalishi va dastlabki hamkorliklarning o'zidayoq ikki tomonning maqsad hamda fikrlari mushtarak ekanligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Qolaversa, O'zbekiston va Janubiy Koreya o'rtasidagi munosabatlar mustahkam ishonchga qurilganligini Koreya O'zbekiston mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan olganligidan anglash qiyin emas.

Ikkinchidan, Qisqa fursatdan ikki tomonlama aloqalarning ta'lim sohasidagi hamkorligi 1992-yilda Toshkentda Koreya ta'lim markazining ochilishi bilan boshlandi. Ushbu markaz koreys tili kurslarini tashkil etib, xalqaro festivallar va olimpiadalar o'tkazib kelmoqda. Shuningdek, oliy ta'lim va universitetlar hamkorligi yuqori ko'rsatkichlarga olib chiqilmoqda. Xususan, O'zbekistonda Koreyaning Inha, Puchon, Yaju va Aju universitetlari faoliyat yuritmoqda. Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida koreys filologiyasi bo'yicha ta'lim yo'lga qo'yilgan. 2014-yilda Inha universiteti ochilishi ta'lim sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqdi. Janubiy Koreyada ham o'zbek tili bo'yicha ta'lim dasturlari joriy qilingan.

Uchinchidan, dual ta'lim, exchenej stady, talaba almashinuvi va ikki tomonlama qo'shma dasturlar kabi hamkorlikning yangi yo'nalishlari nafaqat o'zbek talabalariga, qolaversa koreys talabalariga ham bilim olishda hamda tajriba almashishda qo'l kelmoqda. Qolaversa, bunday Ikki davlat o'rtasida talaba almashinuvi dasturlari amalga oshirilishi Koreyaning turli universitetlari bilan shartnomalar asosida akademik tajriba almashuvi va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini tadqiq etishga imkoniyat yaratmoqda. O'zbekiston va Janubiy Koreya universitetlari o'rtasida 2+2 dasturlari joriy qilinib, o'zbekistonlik talabalar jahon darajasidagi xalqaro ta'lim imkoniyatlaridan foydalanmoqda.

To'rtinchidan, maktabgacha ta'lim sohasi va innovatsion texnologiyalar borasidagi hamkorlik, Janubiy Koreya maktabgacha ta'lim metodikasi bo'yicha ilg'or tajribaga ega. Toshkentda koreys metodikasi asosida faoliyat yurituvchi 324-maktabgacha ta'lim muassasasi tashkil qilingan. KOICA tashkiloti bilan hamkorlikda pedagoglarning salohiyatini oshirishga qaratilgan loyihalar ishlab chiqilgan.

Koreys tilini o'rganish va o'qitish bo'yicha maxsus grant dasturlarini kengaytirish hamda o'quvchilar va o'qituvchilar uchun xalqaro sertifikatlash tizimini joriy etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Talaba va o'qituvchilar uchun qo'shma innovatsion laboratoriyalar va markazlar tashkil etib, IT va STEM sohalarini rivojlantirishga qaratilgan qo'shma loyihalarni kengaytirish orqali zamonaviy dunyoda raqobatbardosh kadrlar zahirasini yaratish mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Abdujabbarov Sh.A., Cooperation between the Republic of Korea and the Republic of Uzbekistan in the development of innovative education. Look to the past. 2021, Special issue 3, pp.133-146
2. Бобожонов Б.Р., Хусайнов Ш.А. Корея Республикасида инновацион салоҳиятни ривожлантириш босқичлари ва унда давлатнинг роли// "Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар" илмий электрон журнали. № 4, июль-август, 2016 йил 1-8
3. Маматов Д.О. Ўзбекистон ва Жанубий Корея: ўзаро ҳамкорлик алоқалари ва истикболлари., Volume 3 | Issue 4 | 2022 707-711., Academic Research in Educational Sciences <https://piima.uz/ru/news/koreya-ta-lim-markazi-bilan-hamkorlik-masalalari-muhokama-qilindi>
4. <https://piima.uz/ru/news/koreya-ta-lim-markazi-bilan-hamkorlik-masalalari-muhokama-qilindi>
5. Oqbo'tayev I. O'zbekiston va Koreya o'rtasidagi diplomatikmunosabatlar. <https://cyberleninka.ru/article/n/ozbekiston-va-koreya-ortasidagi-diplomatik-munosabatlar>
6. Ким Наталья. Развитие Корееведения в Узбекистане: обзор лингвистических исследований. <https://tsuos.uz/wp-content/uploads/2016/11/o%e2%80%98zbekiston-koreya-o%e2%80%98zaro-hamkorlikning-bugungi-kuni-va-istiqbollari.pdf>
7. Ниязова Н.М. Узбекистан-Корея: трансформация двусторонних отношений. <https://tsuos.uz/wp-content/uploads/2016/11/o%e2%80%98zbekiston-koreya-o%e2%80%98zaro-hamkorlikning-bugungi-kuni-va-istiqbollari.pdf>
8. Janubiy Koreya Prezidenti Toshkent shahridagi Inha universitetiga tashrif buyurdi. <https://inha.uz/uz/hukumat/janubiy-koreya-prezidenti-toshkent-shahridagi-inha-universitetiga-tashrif-buyurdi/>

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Toshkent shahrida Puchon universiteti ochish to'g'risidagi 02.07.2018 yildagi PQ-3821-son qarori. URL://<https://lex.uz/docs/-3804145?ONDATE2=04.07.2023&action=compare>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Toshkent shahrida Adju universitetini tashkil etish to'g'risidagi 30.11.2018 yildagi PQ-4041-son. Qarori. URL://<https://www.lex.uz/ru/docs/-4086841>
11. O'zbekiston – Koreya Respublikasi: ko'p asrlik do'stlik aloqalariga sodiqlik va alohida strategik sheriklik yo'lida. <https://www.uzbekistan.org.ua/uz/yangiliklar/7103-o-zbekiston-%E2%80%93-koreya-respublikasi-ko-p-asrlik-do-stlik-alloqalariga-sodiqlik-va-alohida-strategik-sheriklik-yo-lida.html>
12. Bolibekov A.A. Janubiy koreya maktabgacha ta'lim tizimining o'ziga xos xususiyatlari. <https://in-academy.uz/index.php/si/article/download/17308/11957/15214>
13. Janubiy Koreya O'zbekistonda innovatsion bog'cha tashkil etadi. <https://kun.uz/65794935?q=%2F65794935#!>
14. Тошкентдаги Ёджу техника институти фаолиятини ташкил этиш бўйича ҳукумат қарори. <https://www.gazeta.uz/uz/2019/12/18/yoju-institut/>
15. Тошкент шаҳрида Аджу университетини ташкил этиш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори <https://lex.uz/docs/4086841?ONDATE2=04.07.2023&action=compare>
16. «O'zbekiston–Koreya: o'zaro hamkorlikning bugungi kuni va istiqbollari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman Toshkent – «Istiqlol» – 2022., 308 b.